INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

Bo‘lajak tarbiyachilarning nutqiy madaniyatini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Xamrayeva E’zozxon Muzaffarovna
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi,
Perfect - university Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
xamrayeva@perfectuniversity.uz

Annotatsiya: Maqolada pedagog tarbiyachilarning nutqiy madaniyatini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va ularning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi.
Kalit so’zlar: tarbiyachi, pedagog, nutq, nutqiy madaniyat, innovatsion texnologiya, metod, metodika, innovatsion pedagogik metod, ta’lim muassasasi, maktabgacha ta’lim.
Аннотация: В статье анализируются педагогические условия развития речевой культуры педагогов-воспитателей на основе инновационных технологий, а также тенденции их развития.
Ключевые слова: воспитатель, педагог, речь, речевая культура, инновационная технология, метод, методика, инновационный педагогический метод, образовательное учреждение, дошкольное образование
Abstract: The article analyzes the pedagogical conditions for developing the speech culture of future educators based on innovative technologies, as well as the trends in their development.
Keywords: educator, teacher, speech, speech culture, innovative technology, method, methodology, innovative pedagogical method, educational institution, preschool education

Nutq inson aqliy faoliyatining end oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham nutq emasmi? Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy maxsullari tafakkur mevalari til va nutq orqali ro‘yobga chiqadi. Til tafakkur mahsullarining hayotga tadbiq etilishiga vosita bo‘luvchi qudratli quroldir. Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri “Qobusnoma” da ham til va nutqqa alohida etibor berilganki, ular hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘ramiz. Kaykovus hamma hunarlar ichida so‘z hunali-notiqlikni a’lo deb biladi: Bilginki, hamma hunardan so‘z hunari yaxshi” shuning uchun ham kishi suhandon va notiq bo‘lishini ta’kidlaydi. Muallif notiqlikni egallashning yo‘lini tinimsiz mehnat va o‘rganish deb uqtiradi.Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir». Demak, til har qancha qudrati zo‘r bo‘lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilarkan. Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo‘lar ekan. Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir». Demak, til har qancha qudrati zo‘r bo‘lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilarkan. Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo‘lar ekan. Agar til o‘q bo‘lsa, nutq kamondir. O‘qning qudrati kamonning qobiliyatiga ham bog‘liq. Nutq madaniyati tarbiyachilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgilarini tarbiyalashga xizmat qilmog‘i lozim. Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo‘lib, u insonning kundalik oddiy salom aligidan tortib kimga nimani, qachon, qayerda va qanday so‘zlashigacha bo‘lgan barcha nutqiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Nutq madaniyati faqat nutqni egallash yo‘llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalaydi. Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo‘ladi. U ba’zan istak-tilak, ba’zan chaqiriq-murojaat, ba’zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi. Nutq ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Ichki nutq odamning

o‘z ichida gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o‘z-o‘ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo‘lmaydi. Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo‘ladi. U ba’zan istak-tilak, ba’zan chaqiriq-murojaat, ba’zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi. Nutq ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichida gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o‘z-o‘ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo‘lmaydi. Tarbiyachi nutq madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat:

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari o‘z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda turli sharoitlarda bayon eta olish vositalarini, ma’noni turli shakllarda bera olish yo‘llarini, badiiy, ilmiy, ijtimoiy asarlarni o‘rganib, ular haqidagi fikr mulohazani, shaxsiy munosabatni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon eta olish madaniyatini ifodalay olishi juda muhim. Bo‘lajak tarbiyachi nutqining kommunikativ sifatlari:

Nutqning to‘g‘riligi- nutq madaniyati haqidagi ta’limotning markaziy masalasidir. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to‘g‘rilik mavjud bo‘lgandagina yuzaga keladi. Zotan, to‘g‘ri bo‘lmagan nutqning aniq yoki mantiqiyligi, ifodaliligi yoki boyligi haqida gapirish mumkin emas.

Nutqning aniqligi- kishilar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlay oladigan nutq to‘g‘ri bo‘lish bilan birga aniqlik sifatiga ham ega bo‘lishi shart. Agar nutq aniq bo‘lmasa, so‘zlovchi yetkazdirmoqchi bo‘lgan muayyan fikr tinglovchi tomonidan to‘laligicha va aynan anglanishi mahol. U holda fikr chala yoki yanglish tushunilishi mumkin.

Nutqning mantiqiyligi - mantiqiylik nutqning tinglovchi tomonidan to‘g‘ri va to‘liq anglanilishi uchun zaruriy bo‘lgan sifatlardan biridir. Mantiqiylikdan mahrum bo‘lgan biron-bir nutq kishilar o‘rtasidagi tayinli aloqani ta’minlay olmaydi. Nutqning mantiqiyligini to‘g‘rilik va aniqlik sifatlaridan ajralgan holda ham tasavvur etib bo‘lmaydi.

Nutqning sofligi - har qanday narsaga baho berilganda, avvalo, uning asligi, boshqa keraksiz unsurlardan xoliligi, o‘z mohiyatiga muvofiq toza tarkibga egaligi kabi me’yorlardan kelib chiqadi. Soflik sifati nutqni shunday baholash me’yorlaridan hisoblanadi. Aytish lozimki, nutqning bu kommunikativ sifati adabiy til va nutq bilan jamiyat munosabatida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra nutqning sofligi nutqning adabiy til me’yorlariga va jamiyatdagi ma’naviy – axloq qoidalariga yot bo‘lgan unsurlardan xolililigi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida baholash mumkin. Aytish joizki, tarbiyachi nutqining sofligi uning ma’naviy-ma’rifiy, lisoniy-madaniy ko‘rsatkichlardan biridir.

Nutqning boyligi - nutqning boy yoki kambag‘alligi unda tilning bir-biridan faq qiladigan unsurlaridan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo‘lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi yoki, aksincha, muayyan til unsurining takrori ko‘p bo‘lgan nutq kambag‘al nutq hisoblanadi va uning ta’siri ham shunga yarasha bo‘ladi.

Nutqning ifodaliligi - nutqning bu sifati ba’zan ta’sirchanlik tarzida ham talqin etiladi. Ammo ta’sirchanlik keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u yaxlit yaxshi nutqqa xosdir. Tilda ifodalilikni yuzaga keltirishga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ko‘p va xilma-xil. Bunday imkoniyat hech bir istisnosiz tilning barcha sathlarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, so‘z xazinasi, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya, uslub kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas tuganmas manbalaridir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish tarbiyachi oldiga qo‘yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, tarbiyachida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo‘lishi kerak.

Mukammal notiqlik san’atiga ega bo‘lish – bo‘lajak tarbiyachilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning o‘tkirligi, yorqinligi va originalligi tarbiyachilarda his-tuyg‘u va qiziqish uyg‘otishi, uning e’tiborini qaratishi, aytilayotgan narsaning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir. Demak, nutq aniq va ravon bo‘lishi, grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo‘ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o‘rganilayotgan bilim tarbiyachi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun bo‘lajak tarbiyachilardan tinimsiz izlanish va o‘z ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq qilish talab qilinadi.

Bo‘lajak tarbiyachi nutqining ta’sirchanligini oshirish yo‘llari. Bo‘lajak tarbiyachi o‘z nutqini takomillashtirishi uchun ta’lim va tarbiya jarayonida quyidagi yo‘nalishlarga doimiy amal qilib borishi lozim:

- o‘zbek adabiy tili qonuniyatlari va normalarini mukammal bilishi;
- o‘z-o‘zini va nutqiy faoliyatini muntazam nazorat qilishi;
- o‘zining nutqiy madaniyatini doimiy rivojlantirib borishi;
- nutqiy muloqotning barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o‘ziga sharoit yaratishi.

O‘z-o‘zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish uchun tarbiyachi o‘z nutqiy faoliyatini kuzatishi, u jonli, xilma-xil, hissiy bo‘yoqlimi yoki bir xil monotonlimi, bilib borishi lozim. Bo‘lajak tarbiyachi nutqining badiiy nutq me’yorlariga mosligi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo bu nutq ta’sirchanligini oshirishning muhim sharti emas. Tarbiyachi nutqining to‘g‘ri va aniq bo‘lishi bilan birga uning obrazli va ifodali bo‘lishi ham muhimdir. Nutq ta’sirchanligini oshirishda maqollardan, frazeologizmlardan, iboralardan ham foydalanish mumkin. Shuningdek, bunda anafora, gradasiya, inversiya, intonasiya kabi stilistik usullardan foydalanish orqali ham ma’lum bir samaradorlikka erishish mumkin.

Bo‘lajak tarbiyachining nutqiy madaniyatini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirish jarayonida motivlar tizimi muhim o‘rin tutadi.

Motiv deganda: “inson harakatlarining maqsadli xususiyatini belgilovchi psixologik sharoitlar”, “Motiv - bu muayyan ehtiyojni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning u yoki bu faoliyat turiga ichki motivatsiyasi...”. O‘z navbatida, ehtiyojlar tarbiyachini ma’lum bir yo‘nalishda va ma’lum bir tarzda harakat qilishga undaydi, uning rivojlanishining omiliga aylanadi va o‘z-o‘zini rivojlantirish demakdir. Shuning uchun shaxsning (shu jumladan bo‘lajak tarbiyachining) rivojlanish jarayoni uning ehtiyojlarini rivojlantirish jarayonidir.

Bo‘lajak tarbiyachining nutqiy madaniyatini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishda motivatsiya muhim o‘rin tutadi. Bunda tarbiyachining nutqning ahamiyati shundaki, uning shaxs va bolaning shaxsiyatini shakllantirishdagi roli nutq va nutq qobiliyatlarini o‘z-o‘zini takomillashtirishga ijobiy turtki beradi. Bo‘lajak tarbiyachilar universitetdagi ta’lim-tarbiya jarayonida mavjud bilimlar asosida o‘zining nutqiy xatti-harakatlarini baholaydi, uni na’munalar bilan taqqoslaydi, natijada u nutq madaniyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘llarini belgilaydi. Bunda bular: lingvistik, nutq, madaniyat nazariyasi, aloqa nazariyasi va boshqalarni egallab olishlari lozim. Turli faoliyatlarda ma’lum funktsiyalar va bilimlar namoyon bo‘ladi va mustahkamlanadi. T.K.Axayan nutqiy madaniyatni shakllantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar asosida bilimlarning uzluksizligi va rivojlanish bosqichlarini tavsiflaydi.

T.K. Axayan fikricha, pedagogik shart-sharoitlar asosida nutqiy madaniyatning quyidagi funktsiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

a. ma’lumot beruvchi, turli xil ma’lumotlarning katta xajmda qabul qilish;
b. baholovchi, buning yordamida hodisalarga, harakatlarga baho beriladi, o‘z nuqtai nazari asoslanadi, o‘z fikri himoyalay oladi;
c. tuzatuvchi (tartibga soluvchi), men o‘zlashtiraman, qaysiki, shaxs faoliyat jarayonida o‘z rivojlanishining yuqori darajasiga ko‘tariladi;
d. rag‘batlantiruvchi (motivatsion) funktsiyasi, uning ko‘rinishi rivojlanishning yuqori darajasiga erishish, bilim va motivning printsipial, ongli, uyg‘unlik darajasi.

Bu funktsiyalar nutq madaniyati haqidagi bilimlarni rivojlantirishda ham kuzatiladi. Bu jarayon zaruriy asos bo‘lib, usiz tarbiyachining nutq madaniyatini shakllantirish, rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni mumkin emas.

Shuni hisobga olgan holda, bo‘lajak tarbiyachilar nutq madaniyati haqidagi bilimlarni to‘ldirishlari, uning mohiyatini tushunishlari va umumiy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarning tashuvchisi sifatida nutq madaniyatining o‘z shaxsiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini tushunishlari, shakllanishi va rivojlanishi zarur.

Bo‘lajak tarbiyachining umumiy, kasbiy-pedagogik va ularning tarkibiy qismi sifatida nutq madaniyatini shakllantirishda birinchi komponent pedagogning o‘z-o‘zini anglashi egallaydi, chunki asosiy qadriyat yo‘nalishi bolani qabul qilish va uning rivojlanishi hisoblanadi. Bir vaqtning o‘zida o‘zini o‘zi qabul qilmasdan mumkin emas. Tarbiyachining o‘z shaxsiyatini o‘z-o‘zini qabul qilishini o‘z shaxsiyatining qadr-qimmatini his qilish, o‘z qadr-qimmatini his qilish, o‘z "men" ning kuchliligi sifatida ta’riflash mumkin.

Bo‘lajak tarbiyachining "Men" konsepsiyasi uch tomonlama rol o‘ynaydi: u shaxsiyatning ichki izchilligiga erishishga hissa qo‘shadi, tajribani talqin qilishni belgilaydi va rivojlantirish manbai.

Shuni ta’kidlash kerakki, kasbiy o‘zini o‘zi anglash muammosi pedagogik faoliyat uchun alohida ahamiyatga ega, chunki tarbiyachining faoliyati natijalari bolalar faoliyati natijalarida, tarbiyachining o‘zini, uning faoliyatini, natijalarini tahlil qilish qobiliyatida ifodalanadi hamda uning kasbiy ahamiyatli fazilatlari, madaniyati o‘zaro ta’sir samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Bundan tashqari, kasbiy o‘zini o‘zi anglash tarbiyachining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning asosiy shaxsiy regulyatori bo‘lib, usiz uning nutq madaniyatini maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq faoliyati uchun standart sifatida rivojlantirish mumkin emas.

Falsafiy tahlil va psixologik-pedagogik adabiyotlar nutq madaniyatining birinchi tarkibiy qismi - tarbiyachi shaxsining insonparvarlik yo‘nalishini ko‘rib chiqishga imkon berdi, u qiymat yo‘nalishlari, nutq madaniyatini shakllantirish motivlarini o‘z ichiga oladi. Bunda asosiy ehtiyojlar nutq madaniyati to‘g‘risidagi bilim, uni tushunish bo‘ladi hamda mohiyati va ahamiyatini anglash uning shaxsiyati va bolaning shaxsiyatining rivojlanishi uchun o‘qituvchining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlanishining asosiy shaxsiy regulyatori sifatida xizmat qiladi.

Nutqiy madaniyatining ikkinchi komponenti muloqot, nutq qobiliyatlari va nutqning kommunikativ fazilatlaridan foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Har qanday malaka kabi nutqning kommunikativ sifatlaridan foydalanish malakalari ham tegishli bilimlar tizimiga asoslanadi, masalan, nutq madaniyatining nazariy asoslarini, nutqning asosiy kommunikativ sifatlarini bilish’ nutq odobi va asosiy talablarini bilishda pedagogik nutqqa nisbatan qo‘llaniladi. Pedagogik nutq quyidagilarni ta’minlash uchun mo‘ljallangan:

a) samarali muloqot, tarbiyachi va uning tarbiyalanuvchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat;

b) tarbiyalanuvchilarning ishonchi, faoliyat motivlarini shakllantirish, tuzatish uchun tarbiyachining ongi, his-tuyg‘ulariga ijobiy ta’siri;

v) o‘quv jarayonida bilimlarni to‘liq idrok etish, anglash va mustahkamlash;

d) o‘quvchilarning o`quv-amaliy faoliyatini oqilona tashkil etish.

Pedagogik shart-sharoitlarni muvaffaqiyatli bajarishga hissa qo‘shish uchun ochining nutqi ma’lum talablarga javob berishi yoki zarur kommunikativ fazilatlarga ega bo‘lishi kerak. Tarbiyachining to‘g‘ri nutqiga bo‘lgan talab uning me’yoriyligini, ya’ni nutqning nutq qoidalariga muvofiqligini ta’minlaydi, zamonaviy adabiy til me’yorlari, aksentologik, orfoepik, grammatik, so‘z qo‘llashning to‘g‘riligi; ifodalilikka talab, nutq o‘zining obrazliligi, emotsionalligi, yorqinligi va hokazolarda nomoyon bo‘ladi. Umuman olganda, nutqning to‘g‘rilik, aniqlik, dolzarblik, lug‘aviy boylik, ifodalilik va soflik kabi kommunikativ sifatlari tarbiyachi nutq madaniyatining asosini belgilaydi. Shunday qilib, tarbiyachi nutq madaniyati butun pedagogik jarayonning samaradorligini ta’minlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq qobiliyatlarini shakllantirishni aniqlashning asosiy ko‘rsatkichlari: faoliyatni amalga oshirishning to‘liqligi, ularni amalga oshirishning oqilona ketma-ketligi; faoliyatlarning bajarilishidan xabardorlik darajasi.

Ko‘rsatkichlarga ko‘ra, nutq qobiliyatlarini tasniflashning ikkita asosi mavjud:

ko‘nikmalar, ularning asosi boshqalarning nutqini semantik idrok etishdir;

ko‘nikmalar, ularning asosi nutq faoliyatining o‘zini ifodalash - o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma shaklda ifodalash qobiliyati.

Ko‘nikmalarning birinchi guruhiga tinglash qobiliyati, suhbatdoshning taqdimoti mantig‘iga rioya qilish qobiliyati, eshitilgan narsani bilim olish bilan bog‘lash qobiliyati, nutq shakllarini tushunish qobiliyati, nutqni bog‘lash qobiliyati kabi nutq qobiliyatlari kiradi. Ikkinchi guruh

ko‘nikmalariga o‘z fikrini to‘g‘ri, aniq, mantiqiy, ifodali ifodalash, til shakllarini muloqot shartlariga, uning vazifalariga va qabul qiluvchiga, aytilayotgan narsaga munosabatini bildira olishiga muvofiq tanlash kiradi.

Bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan, o‘qituvchining kasbiy ahamiyatli fazilatlari alohida qiziqish uyg‘otadi, bu nutq madaniyatining yuqori darajasini ko‘rsatadi va natijada bolalar bilan samarali muloqot qilishga yordam beradi. Muloqotning samaradorligi va mahsuldorligi haqida gapirganda, biz bolalarning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishini nazarda tutamiz. Bizning fikrimizcha, tarbiyachi shaxsining yetakchi fazilatlaridan biri sifatida refleksiyani alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Reflektsiya - bu shaxsning o‘zini muloqot sherigi tomonidan qanday qabul qilishini, ya’ni sherik meni qanday qabul qilishini bilish demakdir.

Reflektsiya tarbiyachining kasbiy faoliyat sub’ekti sifatida o‘ziga bo‘lgan munosabatini, pedagogik vaziyatda o‘zini oldindan ko‘ra bilishini belgilaydi. Taqqoslash, o‘zingiz haqidagi tasavvuringizni solishtirish qobiliyati bo‘lib, boshqalarning, o‘zaro kontekstdagi ishtirokchilarining baholari tarbiyachiga uni boshqa odamlar - bolalar, hamkasblar, ota-onalar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishini tushunishga imkon beradi. Binobarin, mulohaza sub’ektning o‘zi haqidagi bilim va tushunishning soddaligi emas, balki uni oydinlashtirishdir. Reflektsiya - bu o‘zaro mulohaza sifatida shaxslar tomonidan bir-birini ko‘zguda aks ettirishning o‘ziga xos ikkilangan jarayoni bo‘lib, uning mazmuni aloqa sherigi tomonidan ichki dunyoni sub’ektiv takrorlashdir. Reflektsiya tarbiyachining tahlil qilish, umumlashtirish istagi bilan bog‘liq holda o‘zini va o‘z ishini tushunish va baholash demakdir.

Yana bir muhim shaxsiy fazilat va bizning fikrimizcha, ayniqsa bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilari uchun zarur bo‘lgan narsa bu empatiyadir.

Bizning tadqiqotimiz doirasida biz tarbiyachi bolaning muammolariga hissiy munosabatda bo‘lish qobiliyati haqida gapiramiz. Narsalarga, voqealarga uning nuqtai nazaridan qarash lozim. Tarbiyachi tomonidan empatiyaning namoyon bo‘lishi "bolaning xatti-harakatlari, uning fikrlash va nutq pog‘onasi hisobga olinishini anglatadi; ularga tushunish ko‘rsatiladi va o‘z xatti-harakati strategiyasi yanada moslashuvchan tarzda quriladi. Buning uchun tarbiyachi bolani tinglash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, nutqiy madaniyatni takomillashtirish bo‘yicha maqsadli ishlarni yo‘lga qo‘yish nutq madaniyatining ehtiyoji va ahamiyatini tushunish, uning darajasini oshirish istagini o‘z ichiga oladi.

Shu bois bo‘lajak tarbiyachilarning nutqiy madaniyatini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirish muammosiga munosabatini dolzarblashtirishga, bu muammoning pedagogik ahamiyatini anglashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy pedagogika sharoitida bo‘lajak tarbiyachilarning nutqiy madaniyatini rivojlantirish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki tarbiyachining kommunikativ kompetensiyasi uning kasbiy faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, pedagogik jarayonda samarali muloqot o‘rnatish, ta’lim-tarbiya sifatini oshirish va o‘quvchilar bilan to‘g‘ri aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Shu boisdan, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun innovatsion texnologiyalar va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy madaniyatni shakllantirishda lingvistik va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish muhim sanaladi. Til muloqot vositasi bo‘lishi bilan birga, shaxsning tafakkur jarayonlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Vigotskiy, Leontev, Chomsky kabi psixolingvistlar ta’kidlaganidek, til tafakkurning ifodasi bo‘lib, shaxsning o‘z fikrlarini aniq, mantiqiy va izchil bayon etish qobiliyatini belgilaydi.

Shu sababli, nutqiy madaniyatni rivojlantirishda quyidagi yondashuvlarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Lingvistik va psixologik integratsiya asosida o‘qitish:

“psixologik diagnostika – talabalar nutqiy qobiliyatining rivojlanish darajasini baholash;

til amaliyotlari – muloqot jarayonida fonetik, leksik va grammatik to‘g‘rilikka e’tibor qaratish;

muloqot kompetensiyalarini shakllantirish – auditoriya oldida nutq so‘zlash, fikrni izchil ifodalash, ta’sirchan nutq usullaridan foydalanish” .

XXI asr ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar nutqiy madaniyatni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. “Zamonaviy texnologiyalar yordamida interfaol va individual yondashuvlar orqali talabalar mustaqil mashg‘ulot olib borishi, talaffuz va muloqot malakalarini mustahkamlashi mumkin. Xususan, quyidagi texnologiyalar samarali natija beradi” .

Innovatsion texnologiyalar va raqamli resurslardan foydalanish:

podkastlar va audio materiallar – talaffuz va ifodalilikni rivojlantirishga xizmat qiladi;

virtual simulyatsiyalar – pedagogik muloqotni model qilish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi;

multimedia vositalari – video va interaktiv materiallar orqali o‘quv jarayonini jonlantirish;

onlayn platformalar – masofaviy ta’lim va mustaqil nutqiy mashg‘ulotlarni tashkil etish imkonini beradi.

Nutqiy madaniyat faqat nazariy bilimlar orqali shakllanmaydi, balki amaliy mashg‘ulotlar va muloqot jarayonida rivojlanadi. Shu sababli, interfaol metodlarni qo‘llash zarur. Bu borada quyidagi metodlar samarali hisoblanadi.

Interfaol o‘qitish metodlarini joriy etish:

a. “rolik o‘yinlar – pedagogik situatsiyalarni sahnalashtirish orqali muloqot mahoratini shakllantirish;

b. debatlar va bahs-munozaralar – fikrni aniq ifodalash va mantiqiy nutq tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

c. mantiqiy hikoyalashtirish – fikrlashni rivojlantirish va ifodalilikni oshirish;

d. trening va seminarlar – amaliy nutqiy mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali talabalar ishtirokida faol ta’lim jarayonini yo‘lga qo‘yish” .

Bo‘lajak tarbiyachilar nutqiy madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha shaxsiy o‘z-o‘zini rivojlantirish dasturlariga ega bo‘lishi kerak. Bunda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim.

“Shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini shakllantirish:

a. mustaqil nutqiy mashg‘ulotlar – auditoriya oldida chiqish qilish;

b. adabiyot va badiiy asarlar o‘qish – yozma va og‘zaki nutqni boyitish;

c. nutqiy madaniyat bo‘yicha o‘zini baholash va takomillashtirish rejalari – individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish”.

Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Yaponiya kabi davlatlarning ilg‘or pedagogik tajribalarini o‘rganish va O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish orqali nutqiy madaniyatni rivojlantirish samaradorligini oshirish mumkin. Xususan, quyidagilar muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy tajribalarni o‘rganish va milliy ta’limga moslashtirish:

a. pedagogik menejment va nazoratning innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unligi – yangi metodologik yondashuvlarni tatbiq etish;

b. konsultativ kunlar, ko‘rik-tanlovlar va treninglar tashkil etish – nutqiy madaniyat bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish;

c. pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarini joriy qilish – pedagoglarning professional nutqiy ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Bo‘lajak tarbiyachilarning nutqiy madaniyatini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu jarayonda kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar asosiy o‘rin tutadi. Pedagogik jarayonda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash, lingvistik va psixologik integratsiyani hisobga olish, interfaol mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va ta’lim sifatini yuksaltirish mumkin.

Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar va pedagogik shart-sharoitlarni to‘g‘ri tashkil etish orqali bo‘lajak tarbiyachilar nafaqat o‘zlarining nutqiy madaniyatini rivojlantiradi, balki kelajakdagi tarbiyaviy faoliyatda yanada samarali natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Asqarova M. va boshq. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. – T.: 2001, 28 – fevral.
2. Babayeva, D. R. (2018). Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. TDPU.
3. Babayeva, D. R. (2020). Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. TDPU.
4. Berdaliyeva, G. A. (2019). Maktabgacha ta’lim muassasalari nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish. Toshkent.
5. Boboyeva D., Aminova S.A.Q. Talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tutgan o‘rni //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 147-151.
6. Maletina, N. S. (2003). Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy aloqasini rivojlantirish. Nijnevartovsk.
7. Mirjalilova S.,To‘laganova R. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. – T.: 2008.
8. Rasulov, R. (2017). Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. Toshkent.
9. Shodiyeva Q. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish” – T.:”O‘qituvchi” 1990
10. 64. Shodiyeva Q. O‘rta gurux bolalarni nutqini o‘stirish. – T.: O‘qituvchi, 1993.
11. Qodirova R.M., Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T.: Istiqlol,2006.
12. Zufarov Sh. Pedagogik innavatika. – T.: “Fan va texnologiya” 2002.